

**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH SUBYEKTLARINI TASNIFLASH
MASALALARI**

Alijonov Ibrohimjon Rustamjon o‘g‘li

Jamoat xavfsizligi universiteti

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi

bosh ilmiy xodimi yu.f.b.f.d.(PhD)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlari tadqiq qilingan, olimlarning ilmiy tadqiqot izlanishlari, yuridik adabiyotlar hamda qonun hujjatlari xususan chet davlatlarning qonunchiligi tahlili asosida jamoat xavfsizligi subyektlari tasniflangan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlarini belgilash va guruhlariga ajratish orqali jamoat xavfsizligini ta’minlashni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi obyektlari, jamoat xavfsizligi subyektlari, Konstitutsiya, qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalari.*

**ВОПРОСЫ КЛАССИФИКАЦИИ СУБЪЕКТОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ
ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ**

Аннотация: *В данной статье рассматриваются субъекты общественной безопасности, классифицируются субъекты общественной безопасности на основе научных исследований, юридической литературы и анализа законодательства, в частности законодательства зарубежных стран. На основе анализа были даны рекомендации по повышению общественной безопасности путем выделения и группировки субъектов общественной безопасности.*

Ключевые слова: *Общественная безопасность, общественный порядок, объекты общественной безопасности, субъекты общественной безопасности, Конституция, законы, нормативные правовые акты, общепризнанные нормы международного права.*

**ISSUES OF CLASSIFYING ENTITIES RESPONSIBLE FOR PUBLIC
SECURITY**

Annotation: *This article discusses the subjects of public security, classifies the subjects of public security on the basis of scientific research, legal literature and analysis of legislation, in particular the legislation of foreign countries. Based on the analysis, recommendations were given to improve public safety by identifying and grouping subjects of public safety.*

Key words: *Public safety, public order, objects of public safety, subjects of public safety, Constitution, laws, normative legal acts, universally recognized norms of international law.*

Jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat idoralari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, fuqarolar hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni[1] bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi konsepsiyasi jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini takomillashtirishda muhim qadam va poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur farmon bilan jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini nazariy-huquqiy takomillashtirish yo'nalishlari belgilab berilishi bilan bir qatorda jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlariga ta'rif berildi.

Jumladan, Konsepsiyaning 2-bobi “Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish” deb nomlanib 6-moddasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlardan iborat ekanligi belgilangan[2].

Shu bilan birga, mazkur moddaning ikkinchi qismida jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar keltirib o'tilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlari qatoriga kiritib o'tilgan. Shuningdek ularning vazifalari va majburiyatlari belgilangan.

Biroq, O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunida[3] huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlari, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, adliya organlari, davlat bojxona xizmati organlari, davlat soliq xizmati organlari, mehnat organlari, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari va O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari kiritilgan. Vaxolanki, mazkur subyektlar jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida ham muhim o'ringa ega.

Ya'ni huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar qatori jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlaridan kengroq ko'rsatilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki huquqbuzarliklar profilaktikasi jamoat xavfsizligining tarkibiy qismi hisoblanadi, demak jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlarining qatori huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlardan bir qancha kengroq bo'lishi lozim.

Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlarining qatorini kengaytirish orqali barcha davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi mas'uliyati va javobgarligini belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligi subyektlarini tasniflash va chegarasini belgilash maqsadida ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlari va xorijiy mamlakatlarining qonunchiligiga nazar tashlaymiz.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimi murakkabligi sababli o‘z ichiga nafaqat zarur vakolatga ega davlat organlari balki tegishli tashkiliy boshqaruv subyektlarini ham qamrab oladi.

Rossiya Federatsiyasining “Xavfsizlik to‘g‘risida”gi federal qonuniga muvofiq Rossiyaning jamoat xavfsizligini ta‘minlash subyektlariga barcha davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat birlashmalari, boshqa tashkilotlari shuningdek, fuqarolar kirishi belgilangan[4].

Xususan, qonunning 1-moddasida jamoat xavfsizligi holati uchun asosiy mas‘uliyat o‘z vakolatlarini federal, mintaqaviy va maxalliy bo‘g‘indagi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyati orqali amalga oshiruvchi Davlat tomonidan amalga oshiririshi belgilab o‘tilgan.

Shu bilan birga jamoat xavfsizligini ta‘minlash subyektlarini federal, mintaqaviy va maxalliy bo‘g‘inlarga ajartilgan.

Federal bo‘g‘indagi subyektlari o‘z navbatida uch guruhga ajratilgan.

Birinci guruhga jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida rahbarlik va boshqaruvni amalga oshiruvchi subyektlar ya‘ni Rossiya Federatsiyasining Prezidenti va rahbarlik qiluvchi Xavfsizlik Kengashi, shuningdek Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi;

Ikkinchi guruhga jamoat xavfsizligini ta‘minlashda bevosita ishtirok etuvchi ijro xokimiyatining organlari (IIV, FXX, MVV va boshqalar);

Uchinchi guruhga jamoat tashkilotlari va birlashmalari kiritilgan[5].

Qozog‘iston Respublikasining 2012 yildagi “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonunida jamoat xavfsizligi Milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu bilan birga jamoat xavfsizligini asosiy subyektlari sifatida Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti, Parlament, Vazirlar Mahkamasi va Sud xokimiyati kiritilgan hamda 30 ta davlat organining jamoat xavfsizligini ta‘minlash subyekti sifatidagi vazifalari belgilab berilgan[6].

Bizning fikrimizcha, mazkur qonunda xavfsizlikni ta‘minlash subyektlari birmuncha to‘liq ko‘rsatilgan bo‘lib, ularning aniq vazifalari chegaralari belgilab berilgan, bu esa o‘z navbatida xavfsizlikni ta‘minlash davlat organlarining vazifa va vakolatlarining takrorlanishini oldini oladi.

Rus olimi V.V.Petrovning fikricha, zamonaviy sharoitda davlat manfaatlarini himoya qilish va himoya qilish uchun yagona ko‘p funksiyali va ko‘p elementli tizim mavjud bo‘lgandagina xavfsizlikka tahdidlarga qarshi tura oladi. Uning yaratilishi xavfsizlikni himoya qilish funksiyalarining takrorlanishi va parchalanishini bartaraf etishga imkon beradi[7].

Shu munosabat bilan barcha xavfsizlik tuzilmalarining say-harakatlarini birlashtirish, meyoriy-huquqiy bazani rivojlantirish va bu boradagi milliy qonunchilikni unifikatsiya qilish zarur[8].

Chunonchi, xavfsizlikni ta'minlovchi subyektlarning tarqoqligi va raqobati davlat xavfsizligiga mavjud tahdidlarga qarshi turishda sezilarli muvaffaqiyatga erishishni imkonsiz qiladi. Ushbu yo'nalishdagi faoliyat konseptual va batafsil bo'lishi, barcha harakatlar kelishilgan holda aniq va izchil amalga oshirilishi hamda normativ-huquqiy hujjatlar tizimida ifodalanishi lozim.

Bizning fikrimizcha, “O'zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligi to'g'risida”gi qonuni mazkur muammolarni qisman hal qilishga, amaldagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirishga, jamoat xavfsizligining subyektlari tizimi va ularning aniq vazifalarini belgilab berishga xizmat qiladi.

Bizning nazarimizda, jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlarini tasniflash, vazifa va funksiyalarini aniqlashtirish, jamoat xavfsizligini ta'minlashga barcha davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (chet el fuqarolarining) javobgarligini belgilash jamoat xavfsizligini ta'minlashga barcha subyektlarning mas'uliyatini oshirish barobarida jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

V.V.Petrovning ilmiy izlanishlari va xorijiy davlatlarning qonunchiligining tahlili asosida jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlari – jamoat xavfsizligini ta'minlashda bevosita (yoki bilvosita) ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalar, jamoat birlashmalari va tashkilotlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, boshqa organlar va tashkilotlar hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi deb ta'rif berishni maqsadga muvofiq.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi subyektlarini besh guruhga tasniflash taklif etiladi:

Birinchi guruh jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida rahbarlikni amalga oshiruvchi subyektlar;

Ikkinchi guruh jamoat xavfsizligini ta'minlashga bevosita mas'ul bo'lgan subyektlar;

Uchinchi guruh jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini ilmiy-metodik, axborot-tahliliy, tarbiyaviy va profilaktik yo'nalishda ta'minlovchi subyektlar;

To'rtinchi guruh jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini moddiy-texnik tomondan ta'minlashda ishtirok etuvchi subyektlar;

Beshinchi guruh jamoat xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashuvchi subyektlar tizimidan iborat.

Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqqan holda:

Birinchi guruhga, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida rahbarlikni amalga oshiruvchi subyektlar – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan tartibda xavfsizlikni ta'minlashga bevosita mas'ul bo'lgan hamda xavfsizlik sohasida rahbarlikni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslar va davlat organlarini kiritish.

Mazkur guruhdagi subyektlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashini kiritish maqsadga muvofiq.

Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat siyosatini amalga oshirish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlariga umumiy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashi apparatiga yuklatish lozim.

Bunga quyidagilarni asos qilib keltirishimiz mumkin:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq O'zbekistonda inson huquqlari, tinchlik, xavfsizlik va barqarorlik kafili hisoblanadi;

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashi va Xavfsizlik Kengashining apparatiga bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarlik qiladi;

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga muvofiq barcha kuch tuzilmalar, huquqni muxofaza qiluvchi organlar to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va hisobdor hisoblanadi;

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi va Xavfsizlik kengashining apparati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mudofaa va xavfsizlik sohasidagi vakolatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashuvchi organ hisoblanadi va o'z o'rnida barcha kuch tuzilmalar, huquqni muxofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

Beshinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat siyosatini amalga oshirish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlariga umumiy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashi apparatiga yuklatilishi kelgusida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga va yagona boshqaruvni tashkil qilishga xizmat qiladi.

Ikkinchi guruhga, jamoat xavfsizligini ta'minlashga bevosita mas'ul bo'lgan subyektlar - o'z vakolatlari doirasida jamoat xavfsizligini ta'minlashda bevosita ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalar.

Mazkur guruhdagi subyektlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiyasi, Prokuratura organlari, Adliya vazirligi, Sud xokimiyati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat boshqaruvi organlarini kiritish maqsadga muvofiq.

Chunonchi, mazkur davlat organlarining qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarda yuklatilgan vazifa va funksiyalari bevosita jamoat xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda mazkur organlarning o'zaro hamkorligi muhim o'rin tutadi hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini belgilaydi.

Uchinchii guruhga, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini ilmiy-metodik, axborot-tahliliy, tarbiyaviy va profilaktik yo'nalishda ta'minlovchi subyektlar – jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot, axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshiruvchi ilmiy

(amaliy) va axborot-tahlil markazlari, ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati muammolarini o’rganuvchi institutlar.

Mazkur guruhga O’zbekiston Fanlar Akademiyasi va uning tarmoqlari, barcha xavfsizlik muammolari bilan shug’illanuvchi ilmiy-tadqiqot va axborot-tahlil muassasalari, davlat ta’lim boshqaruvi organlari va ta’lim muassasalarini kiritish taklif etiladi.

Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligini ta’minlashning eng dolzarb muammolari bo’yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar o’tkazish, kriminogen vaziyatni chuqur tahlil qilish, jinoyatlarning sodir etilishiga ta’sir qilayotgan omillarni aniqlash, mavjud kuch va vositalarni samarali taqsimlash bo’yicha takliflarni kiritish, hududlar kesimida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish choralarining samaradorligini ilmiy jihatdan baholash va ularni o’tkazish taktikasini takomillashtirish bo’yicha tavsiyalarni ishlab chiqish, jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning sifatini oshirish bo’yicha tavsiya va ishlanmalarni amaliyotga joriy etishda ilmiy-tadqiqot, axborot-tahliliy markazlarning o’rni beqiyosdir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, jamoat xavfsizligi muammolarini o’rganish, ilmiy tadqiq qilish borasida Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi va Jamoat xavfsizligi universitetini tayanch metodik baza hisoblanadi[9].

To’rtinchi guruhga, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini moddiy-texnik ta’minlashda ishtirok etuvchi subyektlar – jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlarini zaruriy tibbiy, texnik jihozlar, qurol-aslaha va maxsus texnikalar, maxsus vositalar va boshqa vositalar bilan ta’minlovchi davlat organlari va nodavlat ishlab chiqarish tashkilotlari.

Mazkur guruhga O’zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati bo’yicha davlat qo’mitasi, ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan zavodlar, fabrikalar va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini kiritish lozim.

Chunki, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi samaradorligi ko’rsatkichlaridan biri bu jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlarining moddiy-texnik ta’minotidir.

Chunonchi, jamoat xavfsizligini zamonaviy qurollar, maxsus texnikalar, maxsus vositalar, axborot texnologiyalari yordamisiz ta’minlash mumkin emas. Binobarin, xavfsizlik sohasidagi davlatimiz siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri bu harbiy xizmatchi va xodimlarni zamonaviy qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnikalar, maxsus vositalar hamda axborot texnologiyalari bilan taminlash hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati Davlat qo’mitasini tashkil etish to’g’risida”gi[10] qarorida mazkur vazifalarni amalga oshirish O’zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati bo’yicha davlat qo’mitasiga yuklatilgan.

Beshinchi guruhga, jamoat xavfsizligini ta’minlashga ko’maklashuvchi subyektlar – jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat organlariga ko’maklashuvchi fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslar, valontyorlik harakatlari, “Fidokor yoshlar” patrullik jamoatchilik guruhlari va boshqalar.

Barcha demokratik davlatlar ijtimoiy-siyosiy xayotida jamoat birlashmalari muhim o‘rin egallaydi hamda davlat organlariga fuqarolik jamiyatini institutlarini rivojlantirish, tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash fuqarolar hamda jamiyatning huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishda ko‘makdosh hisoblanadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi[11] Qonunining 3-moddasi birinchi qismida jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqlar hamda erkinliklarni ro‘yobga chiqarish va himoya qilish; fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuzilishi belgilab qo‘yilgan. Binobarin, jamoat birlashmalari jamiyatning turli qatlamlarini yagona ezgu maqsad ostida birlashtirish va davlat boshqaruvi organlariga yordamga safarbar etishda muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil

24-dekabrda “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4075 Qaroriga[12] muvofiq barcha maxallarda “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish belgilandi.

Shu bilan birga kelgusida mamlakatimizda jamoat birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi ishtiroki oshirib boriladi.

Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligini ta‘minlashda ko‘maklashishda jamoat birlashmalarining rolini oshirish kelgusida jamoat xavfsizligini ta‘minlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jamoat xavfsizligini ta‘minlash subyektlarini belgilashda olimlar V.V.Petrov[13] va S.Y.Chapchikovlarning[14] fikrlariga qo‘shilgan holda zamonaviy sharoitda davlat manfaatlarini himoya qilish uchun yagona ko‘p funksiyali va ko‘p elementli tizim mavjud bo‘lgandagina xavfsizlikka tahdidlarga qarshi tura oladi, uning yaratilishi xavfsizlikni himoya qilish funksiyalarining takrorlanishi va parchalanishini bartaraf etishga imkon beradi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Shu bilan birga jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar muayyan jamiyatning barcha a‘zolariga dahldor hisoblanadi. Zero, jamiyatning tinch-osuda xayotini ta‘minlash nafaqat davlat idoralari yoki jamoat birlashmalari balki har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Demak jamoat xavfsizligini ta‘minlashda jamiyatning barcha qatlami o‘ziga xos subyekt hisoblanadi.

Shu boisdan barcha subyektlarni, xavfsizlikni ta‘minlashdagi ishtirokiga ko‘ra guruhlariga ajratish, ularning vazifa va majburiyatlarini, vakolatlarini belgilash jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 29-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni //http:www.lex.uz.// O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 29-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni //http:www.lex.uz.// O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi;
3. O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-371-con Qonuni //http:www.lex.uz.// O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi;
4. Федеральный закон РФ О безопасности <http://www.internet-law.ru/> ;
5. Воронов А.М. Система обеспечения общественной безопасности: проблемы оптимизации //;
6. Закон “О национальной безопасности Республики Казахстан” (с изменениями и дополнениями по состоянию на 27.12.2021 г.) // <https://online.zakon.kz/>;
7. В.В.Петров Проблемы правового регулирования деятельности субъектов обеспечения безопасности российского государства // <https://cyberleninka.ru/>;
8. Чапчиков С.Ю. Новые угрозы и вызовы как основная причина изменения содержания деятельности Российского государства по обеспечению безопасности // «Черные дыры» в Российском законодательстве. - М., 2011. № 3. С. 6-8.;
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 29-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni //http:www.lex.uz.// O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi;
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati Davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5246-son Qarori //http:www.lex.uz.// O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi;
11. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi 223-XII-son Qonuni //http:www.lex.uz.// O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi;
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4075 Qarori //http:www.lex.uz.// O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi;
13. В.В.Петров Проблемы правового регулирования деятельности субъектов обеспечения безопасности российского государства // <https://cyberleninka.ru/>;

14. Чапчиков С.Ю. Новые угрозы и вызовы как основная причина изменения содержания деятельности Российского государства по обеспечению безопасности // «Черные дыры» в Российском законодательстве. - М., 2011. № 3. С. 6-8.